



«Mikrokreditbank» aksiyadorlik-tijorat banki  
Joint-stock commercial bank «Microcreditbank»  
Акционерно-коммерческий банк «Микрокредитбанк»

100096, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Lutfiy ko'chasi 14  
Tel.: +998 71 207 46 51 (1104), Aloqa markazi: 1285  
E-xat: mikrokreditbank@exat.uz www.mkbank.uz

## XABARNOMA

«09» yanvar 2024 y.

№ 1

EMITENTNING NOMI							
1.	To'liq:	"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki					
	Qisqartirilgan:	"Mikrokreditbank" ATB					
	Birja tikerining nomi:	MCBA					
ALOQA MA'LUMOTLARI							
2.	Joylashgan eri:	100096, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Lutfiy ko'chasi, 14-uy					
	Pochta manzili:	100096, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Lutfiy ko'chasi, 14-uy					
	Elektron pochta manzili:	info@mikrokreditbank.uz					
	Rasmiy veb-sayti:	www.mikrokreditbank.uz					
3.	MUHIM FAKT TO'G'RISIDA AXBOROT						
	Muhim faktning raqami:	06					
	Muhim faktning nomi:	Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar					
	Umumiy yig'ilish turi:	Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi					
	Umumiy yig'ilish o'tkazish sanasi:	28.12.2023 y.					
	Umumiy yig'ilish bayonnomasi tuzilgan sana:	06.01.2024 y.					
	Umumiy yig'ilish o'tkazilgan joy:	Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Lutfiy ko'chasi, 14-uy.					
	Umumiy yig'ilish kvorumi:	99,34 foiz					
№	Ovoz berishga qo'yilgan masalalar	Ovoz berish yakunlari					
		yoqlash		qarshi		betaraflar	
		%	soni	%	soni	%	soni
1	"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.	100	3 530 772 036	0	0	0	0
2	"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining joylashgan yerini (pochta manzilini) o'zgartirish.	100	3 530 772 036	0	0	0	0
3	"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki ustav kapitalini kamaytirish.	100	3 530 772 036	0	0	0	0
4	"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki Ustaviga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish.	100	3 530 772 036	0	0	0	0
5	"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining avval ro'yxatdan o'tkazilgan Aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qarorlariga o'zgartirishlar kiritish hamda avval ro'yxatdan o'tkazilgan Aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar matnini tasdiqlash.	100	3 530 772 036	0	0	0	0

6	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.	0,3	10 561 797	99,7	3 520 210 239	0	0
Umumiy yig‘ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to‘liq bayoni:							
1.	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamenti tasdiqlansin.						
2.	<p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining joylashgan yeri (pochta manzili) O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Lutfiy ko‘chasi, 14-uy, pochta indeksi: 100096 dan O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shox ko‘chasi, 4-uy, pochta indeksi: 100047 ga o‘zgartirilsin.</p> <p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining joylashgan yeri (pochta manzili) o‘zgarishi bilan bog‘liq barcha chora-tadbirlar, jumladan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani qayta rasmiylashtirishni qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta‘minlash Bank Boshqaruvi zimmasiga yuklatilsin.</p>						
3.	<p>“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-168-son “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiyashtirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qaroriga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-maydagi 266-son “Davlat ishtirokidagi korxonalarining aktivlaridan samarali foydalanishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qaroriga muvofiq ko‘chmas mulk obyektlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga davlat ulushini kamaytirish hisobiga o‘tkazilishi sababli, “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining ustav kapitali aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo‘li bilan 603 524 664 (olti yuz uch million besh yuz yigirma to‘rt ming olti yuz oltmish to‘rt) so‘mga kamaytirilsin va uning miqdori 3 795 323 565 000 (uch trillion yetti yuz to‘qson besh milliard uch yuz yigirma uch million besh yuz oltmish besh ming) so‘m etib belgilansin.</p> <p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining ustav kapitalini kamaytirish tartibi quyidagicha amalga oshirilsin:</p> <p>Bankning Jizzax viloyati mintaqaviy filiali balansidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Jizzax viloyat hududiy boshqarmasiga o‘tkazilgan balans qiymati 632 094 520,80 so‘m bo‘lgan va 478 186 275,0 so‘mga sotilgan Jizzax viloyati, Mirzacho‘l tumani, Gagarin shahri, G‘alaba MFY, O‘zbekiston ko‘chasi, 45-uyda joylashgan “Ma‘muriy bino” sotilgan qiymati miqdorida hamda Jizzax viloyati Zarbdor filiali balansidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Jizzax viloyati hududiy boshqarmasiga o‘tkazilgan balans qiymati 125 338 274,54 so‘m bo‘lgan va 612 760 500,0 so‘mga sotilgan Jizzax viloyati, Zarbdor tumani, Oybek MFY, Shifokorlar ko‘chasi, 25-uyda joylashgan “Sobiq ma‘muriy bino” balans qiymati miqdorida, jami 603 524 549,54 so‘m miqdorida Bank ustav kapitalidagi Davlat ulushini, shundan mutanosib ravishda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli bo‘lgan 443 192 491,35 so‘m miqdorida Davlat ulushini va O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasiga tegishli bo‘lgan 160 332 058,19 so‘m miqdorida Davlat ulushini kamaytirish hisobiga kamaytiriladi;</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli nominal qiymati 1 068 so‘m bo‘lgan 414 974 dona umumiy qiymati 443 192 232 so‘m va O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasiga tegishli nominal qiymati 1 068 so‘m bo‘lgan 150 124 dona umumiy qiymati 160 332 432 so‘m, jami 565 098 dona umumiy qiymati 603 524 664 so‘m Bankning oddiy aksiyalari 1 068 so‘m narxda keyinchalik bekor qilgan holda Bank oddiy aksiyalarining umumiy sonidan qisqartiriladi;</p> <p>Bank aksiyadorlarining 2021-yil 25-noyabrdagi navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi qaroriga muvofiq Bank ustav kapitalidagi Davlat ulushi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ulushini kamaytirish hisobiga o‘tkazilgan ko‘chmas mulk obyekti balans qiymati miqdori va bekor qilingan oddiy aksiyalar umumiy qiymati miqdori o‘rtasidagi 812,61 so‘m farqning 726,81 so‘m qismi Bank aksiyadorlarining 2022-yil 2-fevraldagi navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi qaroriga muvofiq qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan Bank ustav kapitalini ko‘paytirish uchun muomalaga chiqarilgan aksiyalarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga joylashtirishda hisobga olinganligi inobatga olinib, 812,61 so‘m farqning qolgan 85,80 so‘m qismi va Bank aksiyadorlarining 2023-yil 27-iyundagi navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishi qaroriga muvofiq Bank ustav kapitalidagi Davlat ulushi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligiga (avval O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga) tegishli ulushini kamaytirish hisobiga o‘tkazilgan ko‘chmas mulk obyekti balans qiymati miqdori va bekor qilingan oddiy aksiyalar umumiy qiymati miqdori o‘rtasidagi 552 so‘m farqning 173,55 so‘m qismi, jami 259,35 so‘m yuqoridagi o‘tkazilgan ko‘chmas mulk obyektlari evaziga Bank ustav kapitalidagi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli bo‘lgan Davlat ulushini kamaytirishda hisobga olinadi;</p> <p>Bank ustav kapitalidagi O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasiga tegishli bo‘lgan Davlat ulushini kamaytirishda, yuqoridagi o‘tkazilgan ko‘chmas mulk obyektlari qiymati miqdorining O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasiga tegishli qismi va uning bekor qilnadigan oddiy aksiyalar umumiy qiymati miqdori o‘rtasidagi 373,81 so‘m farq Bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasiga to‘lab beriladi yoki keyinchalik uning Bank ustav kapitalidagi ulushi ko‘paytirilayotganda yohud kamaytirilayotganda hisobga olinadi;</p> <p>Bank qonunchilikka muvofiq ustav kapitalini kamaytirish to‘g‘risida o‘z kreditorlarini xabardor qiladi va ularning talablarini bajaradi.</p>						
4.	<p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Ustaviga o‘zgartishlar kiritilsin va tasdiqlansin.</p> <p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Boshqaruvi zimmasiga Bank Ustaviga kiritilayotgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.</p>						

5.	<p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining ustav kapitalini kamaytirilishi bilan bog‘liq avval O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2021-yil 9-avgustda P0005-28-son va 2022-yil 15-fevralda P0005-29-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2023-yil 29-sentyabrda P0005-30-son bilan ro‘yxatga olingan Aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorlariga o‘zgartirishlar kiritilsin.</p> <p>“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining avval O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2021-yil 9-avgustda P0005-28-son va 2022-yil 15-fevralda P0005-29-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2023-yil 29-sentyabrda P0005-30-son bilan ro‘yxatga olingan Aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar matni tasdiqlansin hamda ularni tasdiqlanganligi bo‘yicha imzolash huquqi yig‘ilish raisiga berilsin.</p> <p>Aksiyalar chiqarilishini qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish Bank Boshqaruvi zimmasiga yuklatilsin.</p>
6.	<p>Ovoz berish natijalari asosida, O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” Qonuni 60-moddasidagi talablar, jumladan Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida ovozga qo‘yilgan masala bo‘yicha qaror aksiyadorlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinishi hisobga olinib, Bank Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi kun tartibidagi oltinchi masala, ya‘ni “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash bo‘yicha qaror qabul qilinmadi.</p>
Ustavga kiritilayotgan o‘zgartish va (yoki) qo‘shimchalarning matni ilova qilinadi.	

**Boshqaruv rasi o`rinbosari**



**I.Djumaniyazov**

Kelishuvchilar: Z.Turdibekov, X.Usmanov, M.Yoqubov

<https://collective.mkb.uz/hujjat/doc.jsp?id=b0aa8007-2727-4013-90b2-4f48ea72b6b2&pin=INjy32WW>